

SUD PSIXOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi

O'zbekiston Sharda universiteti

Yoshlar bilan ishlash bo'lim boshligi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada sud psixologiyasining jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, mavjud muammolar hamda ularni hal etish istiqbollari tahlil qilingan. Sud jarayonlarida guvoh va jabrlanuvchilarning psixologik holatini to'g'ri baholash, ekspertizalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash, yoshlar va nogiron shaxslar uchun qulay psixologik muhit yaratishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, sud psixologiyasini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va kompleks ekspertizalarning samaradorligini oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Sud psixologiyasi, ekspertiza, guvoh, jabrlanuvchi, ruhiy holat, yolg'on guvohlik, psixologik yordam, sud-huquq tizimi, rivojlanish istiqbollari, adolat.*

Abstract: *This article analyzes the role and importance of forensic psychology in society, existing problems and prospects for their solution. The theoretical and practical foundations of correctly assessing the psychological state of witnesses and victims in court proceedings, ensuring the scientific validity of examinations, and creating a favorable psychological environment for young people and disabled persons are highlighted. Special attention is also paid to issues such as training personnel in the development of forensic psychology, the use of modern technologies, and increasing the effectiveness of complex examinations.*

Keywords: *Forensic psychology, examination, witness, victim, mental state, false testimony, psychological assistance, judicial system, development prospects, justice.*

Аннотация: *В статье анализируются роль и значение судебной психологии в обществе, существующие проблемы и перспективы их решения. Рассматриваются теоретические и практические основы правильной оценки психологического состояния свидетелей и потерпевших в судебном процессе, обеспечения научной обоснованности экспертиз и создания благоприятной психологической среды для молодежи и лиц с ограниченными возможностями. Особое внимание уделяется таким вопросам, как подготовка кадров для развития судебной психологии, применение современных технологий и повышение эффективности сложных экспертиз.*

Ключевые слова: *Судебная психология, экспертиза, свидетель, потерпевший, психическое состояние, ложные показания, психологическая помощь, судебная система, перспективы развития, правосудие.*

Kirish

Sud-psixologiya huquqiy davlat qurilishining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda insonning ruhiy holatini chuqur o'rganish, guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatmalarini obyektiv baholash, shuningdek, sudlanuvchilarning

psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayonning adolatli bo'lishida alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda sud-huquq tizimini takomillashtirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda sud psixologiyasini rivojlantirish istiqbollari ham dolzarb masalalardan biridir. Sud psixologiyasining bugungi kunda sud jarayonlarida psixologik ekspertizaga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Guvohlarning stress holati, jabrlanuvchilarning ruhiy jarohatlari, yolg'on guvohlik berish ehtimoli va yosh hamda nogiron shaxslarning ko'rsatma berishidagi murakkabliklar – bularning barchasi sud adolatiga ta'sir qiluvchi muhim omillardir. Shu sababli, zamonaviy psixodiagnostik usullardan foydalanish va ekspertizalarni ilmiy asosda o'tkazish masalasi dolzarbdir. Mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson huquqlarini himoya qilish, adolat tamoyillarini mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. Shu jarayonda sud psixologiyasi ham alohida e'tiborga olinmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda sud-psixologik ekspertiza institutlari faoliyat yuritmoqda, ammo ularning imkoniyatlarini kengaytirish zaruriyati mavjud. Guvohlarning stress holati, jabrlanuvchilarning ruhiy jarohatlari, yolg'on guvohlik berish ehtimoli va voyaga yetmagan hamda nogiron shaxslarning sud jarayonlarida ishtiroki – bularning barchasi adolatli qaror chiqarishda murakkablik tug'diradi. Shu bois, sohada zamonaviy psixodiagnostik usullarni tatbiq etish, malakali psixolog kadrlarni tayyorlash va psixologik yordam ko'rsatish markazlarini yo'lga qo'yish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Prezident qaror va farmonlarida ham inson huquqlarini himoya qilish, odil sudlovni ta'minlash masalalari ustuvor bo'lib, bu jarayonda sud psixologiyasi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xalqaro tajribada sud psixologiyasi keng rivojlangan bo'lib, u huquqiy tizimning ajralmas qismi sifatida faol qo'llanilmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarda sud psixologlari guvohlarning ishonchliligini tekshirish, jabrlanuvchilarning ruhiy holatini baholash, gumondorlarning psixologik portretini tuzishda faol ishtirok etadi.

Masalan, AQShda forensic psychology (sud psixologiyasi) mustaqil ilmiy-amaliy soha sifatida shakllanib, universitetlarda maxsus yo'nalish sifatida o'qitiladi. Sud jarayonlarida poligraf, neyropsixologik testlar, hatto sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturlar yordamida yolg'on guvohlikni aniqlash tizimlari keng qo'llaniladi. Yevropa mamlakatlarida esa jabrlanuvchilar va guvohlarga maxsus psixologik yordam markazlari tashkil etilgan bo'lib, ularning huquqiy va ruhiy himoyasi davlat tomonidan kafolatlanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sud psixologiyasining samarali rivojlanishi nafaqat adolatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi, balki jamiyatda inson huquqlarini hurmat qilish va demokratiya tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonda sud psixologiyasini jahon standartlari asosida rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu yo'nalishda ilmiy-metodik bazani mustahkamlash, kadrlar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali mamlakatimiz sud-huquq tizimi samaradorligini oshirish mumkin.

Rivojlantirish istiqbollari. Sud psixologiyasi – huquqiy davlat barpo etish jarayonida adolat, haqqoniylik va inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy sohaga

aylanmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, istiqboldagi yo‘nalishlar quyidagicha asoslanadi:

Ilmiy-metodik bazani kuchaytirish. Sud psixologiyasi bo‘yicha milliy ilmiy maktabni shakllantirish, nazariy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarur. O‘zbekiston sharoitiga mos psixodiagnostik testlar va metodikalarni ishlab chiqish, mavjud xalqaro tajribalarni mahalliyashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Universitetlarda “Sud psixologiyasi” fanini alohida yo‘nalish sifatida rivojlantirish, magistratura va doktorantura darajasida maxsus dasturlarni joriy etish istiqboldagi asosiy vazifalardir.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yolg‘on guvohlikni aniqlashda poligraf, neyropsixologik testlar va sun‘iy intellekt asosidagi dasturlarni qo‘llash kelajakda samaradorlikni oshiradi. Raqamli platformalar orqali guvohlarning psixologik portretini tuzish, stress darajasini aniqlash va real vaqt rejimida monitoring qilish mumkin. Sud jarayonlarida onlayn psixologik yordam ko‘rsatish tizimlarini joriy etish orqali jabrlanuvchi va guvohlarning ruhiy holatini yengillashtirish mumkin bo‘ladi.

Mutaxassis kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish Sud psixologlari, sud ekspertlari va tergovchilar uchun maxsus qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish kerak. Jahon tajribasida qo‘llanilayotgan ilg‘or metodikalarni o‘rganish va o‘zlashtirish uchun xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish muhim. Amaliyotchi psixologlarning kasbiy deontologiyasi va etik me‘yorlarini mustahkamlash, ularni mustaqil ekspert sifatida faoliyat yuritishga tayyorlash zarur.

Sud jarayonlarida himoya mexanizmlarini kuchaytirish voyaga yetmaganlar va ruhiy nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus psixologik yordam xonalarini tashkil etish lozim. Sud binolarida psixologik yordam ko‘rsatish markazlarini joriy etish orqali jabrlanuvchilar va guvohlarning ruhiy bosimini kamaytirish mumkin.

Qonunchilikda ushbu toifadagi shaxslarning ruhiy xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan alohida normalarni ishlab chiqish talab etiladi.

Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish AQSh, Germaniya, Rossiya, Turkiya va boshqa mamlakatlardagi sud psixologiyasi institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish istiqboli mavjud. Qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, seminarlar va treninglar orqali milliy tajribani boyitish mumkin. Xalqaro standartlarga mos milliy me‘yoriy-huquqiy bazani shakllantirish sud psixologiyasini rivojlantirishning eng muhim kafolatlaridan biridir. Sud psixologiyasini rivojlantirish istiqbollari O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, sud tizimining adolatli faoliyat yuritishini kafolatlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-metodik bazani mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali bu sohani jahon andozalari darajasiga olib chiqish mumkin.

Jamiyat va davlat uchun ahamiyati. Sud psixologiyasi – bu nafaqat ilmiy-amaliy soha, balki jamiyatning barqarorligi va davlatning huquqiy siyosatida muhim o‘rin tutuvchi yo‘nalishdir. Uning ahamiyati bir nechta asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlash. Sud psixologiyasi yordamida guvohlarning ko‘rsatmalari, jabrlanuvchilarning ruhiy holati va sudlanuvchilarning psixologik portreti chuqur tahlil qilinadi.

Bu esa noto'g'ri guvohlik, yolg'on ayblov yoki ruhiy bosim ostida qilingan iqrorliklarning oldini olish imkonini beradi. Natijada, sud qarorlari yanada adolatli, haqqoniy va qonuniy bo'ladi.

Inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish. Davlatning asosiy vazifalaridan biri – fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdir. Sud psixologiyasi aynan shu vazifani bajarishga xizmat qiladi. Jabrlanuvchilarga psixologik yordam ko'rsatish, voyaga yetmaganlar va nogiron shaxslarning manfaatlarini himoya qilish orqali inson huquqlarining buzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sud-huquq tizimining samaradorligini oshirish. Psixologik ekspertizalar va zamonaviy diagnostik metodlar sud jarayonlarida aniqlik va tezkorlikni ta'minlaydi. Bu nafaqat sudlarning samarali ishlashiga, balki jamiyatda qonuniylik va tartibni mustahkamlashga ham yordam beradi.

Jamiyatda ishonch muhitini yaratish. Fuqarolar sud tizimiga qanchalik ko'p ishonch bildirsalar, davlat institutlariga ham shunchalik ishonch ortadi. Sud psixologiyasi yordamida adolatli qarorlar chiqarilishi, jabrlanuvchilar va guvohlarning ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi jamiyatda ijobiy psixologik muhit shakllanishiga olib keladi.

Jinoyatchilikni oldini olish va profilaktika. Sud psixologlari nafaqat mavjud jinoyatlarni tahlil qiladi, balki kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning psixologik ildizlarini ham o'rganadi. Masalan, o'smirlar orasida huquqbuzarliklarning sabablari, zo'ravonlikka moyillik yoki stress oqibatida yuzaga keladigan salbiy xatti-harakatlarni aniqlash orqali profilaktik choralar ishlab chiqiladi.

Davlatning xalqaro nufuzini oshirish. Jahon tajribasiga asoslangan sud psixologiyasi tizimini rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro huquqiy hamjamiyatdagi o'rnini mustahkamlaydi. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha samarali tizimlar xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etiladi, bu esa davlatning ijobiy imijini kuchaytiradi.

Sud psixologiyasining jamiyat va davlat uchun ahamiyati nihoyatda keng. U adolatli sud qarorlarini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish, sud tizimining samaradorligini oshirish va jamiyatda ishonch muhitini yaratishda bevosita ishtirok etadi. Shuningdek, u jinoyatchilik profilaktikasi va xalqaro maydondagi nufuzni oshirishda ham muhim o'rin tutadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sud psixologiyasini rivojlantirish istiqbollari mamlakatimiz sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida odil sudlovni ta'minlash nafaqat huquqiy, balki psixologik yondashuvlarni ham talab qilmoqda. Chunki inson omili – guvoh, jabrlanuvchi, sudlanuvchi yoki hatto sud xodimlarining psixologik holati – qarorlarning adolatli bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, ilmiy asoslangan ekspertizalarning rivojlanishi, yangi psixodiagnostik metodlarning tatbiqi sud ishlarini yanada aniq va haqqoniy qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, malakali kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish kelajakda xalqaro standartlarga mos bo'lgan sud-psixologik ekspertiza tizimini shakllantiradi. Uchinchidan, zamonaviy texnologiyalar – poligraf, neyropsixologik testlar, sun'iy intellekt vositalari – sud jarayonlarining shaffof va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. To'rtinchidan, jabrlanuvchilar, guvohlar va himoyaga muhtoj shaxslarga

psixologik yordam ko'rsatish tizimining shakllanishi fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Natijada, sud psixologiyasi rivojlanishi: jamiyat miqyosida – adolat va ishonch muhitini mustahkamlaydi, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi; davlat miqyosida – qonun ustuvorligi va odil sudlovni kafolatlab, xalqaro hamjamiyatda mamlakatimizning huquqiy imijini yuksaltiradi. Shunday qilib, sud psixologiyasini rivojlantirish – bu shunchaki ilmiy yo'nalish emas, balki inson huquqlari va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, adolatli jamiyat barpo etish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidagi eng muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonun, 2001 -yil 31-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, 2008 -yil 7-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonun, 2021-yil 15-iyun.
5. BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi, 1989-yil.
6. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi", 2006-yil.
7. Давлетов У., Холматов А. Юридик психология. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016.
8. Bartol C.R., Bartol A.M. Introduction to Forensic Psychology. – Los Angeles: SAGE Publications, 2021.
9. Melton G.B., Petrila J., Poythress N.G., Slobogin C. Psychological Evaluations for the Courts. – New York: Guilford Press, 2017.